



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-iyul holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 20 788 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 18 419 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 93,5 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 92,4 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda.***

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan





Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2024		1 604
2023		2 260
2022		2 398
2021		2 379
2020		2 690

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**

2024-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 604 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 71,0 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 046 ta, xususiy korxonalar soni 272 ta va oilaviy korxonalar soni 245 tani tashkil etadi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	393	8,2 %
Karmana t.	202	6,5 %
Qiziltepa t.	191	6,9 %
Navbahor t.	173	8,5 %
Xatirchi t.	150	6,1 %
Konimex t.	141	13,9 %


Zarafshon sh.	104	7,7 %
Nurota t.	78	5,6 %
Tomdi t.	66	11,3 %
Uchquduq t.	60	7,4 %
G'ozg'on sh.	46	10,6 %

2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 20 788 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,2 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,4 foiz, qurilish – 5,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, boshqa turlari – 20,0 foiz.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 816	Zarafshon sh.	1 346
Karmana t.	3 129	Konimex t.	1 012
Qiziltepa t.	2 784	Uchquduq t.	807
Xatirchi t.	2 443	Tomdi t.	584
Navbahor t.	2 031	G‘ozg‘on sh.	436
Nurota t.	1 400		

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda.

2024-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 563 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 558 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	373	8,9 %	Zarafshon sh.	102	8,4 %
Karmana t.	199	6,9 %	Nurota t.	76	6,3 %
Qiziltepa t.	186	7,3 %	Tomdi t.	65	13,0 %
Navbahor t.	172	9,3 %	Uchquduq t.	58	8,5 %
Xatirchi t.	149	6,9 %	G‘ozg‘on sh.	44	11,0 %
Konimex t.	139	15,8 %			

2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2024		18 509
2023		20 038
2022		21 727
2021		19 407
2020		17 067

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-iyul holatiga 18 509 taga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,4 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,9 foiz, sanoat – 14,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,6 foiz, qurilish – 6,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,7 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 201	Nurota t.	1 213
Karmana t.	2 865	Konimex t.	879
Qiziltepa t.	2 543	Uchquduq t.	686
Xatirchi t.	2 152	Tomdi t.	501
Navbahor t.	1 852	G'ozg'on sh.	401
Zarafshon sh.	1 216		

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 31,9 foiz, sanoat – 21,1 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 16,2 foiz, qurilish – 4,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 9,6 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 4,2 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,5 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	369	8,9 %	Zarafshon sh.	102	8,4 %
Karmana t.	199	7,0 %	Nurota t.	76	6,3 %
Xatirchi t.	148	6,9 %	Tomdi t.	65	13,1 %
Navbahor t.	172	9,3 %	Uchquduq t.	58	8,5 %
Qiziltepa t.	186	7,3 %	G‘ozg‘on sh.	44	11,0 %
Konimex t.	139	16,0 %			

2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (22,6 foiz), Karmana (15,5 foiz), Qiziltepa (13,8 foiz), Xatirchi (11,7 foiz) va Navbahor (10,0 foiz), Zarafshon shahri (6,6 foiz), Nurota (6,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 164	Zarafshon sh.	1 209
Karmana t.	2 854	Konimex t.	870
Qiziltepa t.	2 540	Uchquduq t.	683
Xatirchi t.	2 146	Tomdi t.	498
Navbahor t.	1 848	G'ozg'on sh.	399
Nurota t.	1 208		

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda**

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	187
Zarafshon sh.	23
G'ozg'on sh.	14
Konimex t.	327
Qiziltepa t.	232
Navbahor t.	281
Karmana t.	299
Nurota t.	337
Tomdi t.	189
Uchquduq t.	44
Xatirchi t.	233



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	618
Zarafshon sh.	204
G‘ozg‘on sh.	232
Konimex t.	76
Qiziltepa t.	276
Navbahor t.	212
Karmana t.	444
Nurota t.	205
Tomdi t.	69
Uchquduq t.	114
Xatirchi t.	287



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni 81,1 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan - 89,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 83,5 foizni tashkil etdi), 7,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,4 foizni tashkil etdi), 3,0 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 149,1 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi) tashki etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

2 441

203

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish

82


11

Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta’minlash va havoni
konditsiyalash

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	371
Zarafshon sh.	89
G‘ozg‘on sh.	16
Konimex t.	29
Qiziltepa t.	183
Navbahor t.	107
Karmana t.	222
Nurota t.	78
Tomdi t.	28
Uchquduq t.	29
Xatirchi t.	70



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 49,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,3 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 34,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,3 foizni tashkil etdi.

197



Fuqarolik
obyektlarini qurish

422

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

603


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 756
Zarafshon sh.	456
G'ozg'on sh.	97
Konimex t.	213
Qiziltepa t.	1 358
Navbahor t.	988
Karmana t.	1 182
Nurota t.	332
Tomdi t.	160
Uchquduq t.	301
Xatirchi t.	1 099



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 930 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,9 foizni tashkil etdi.

711

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 510

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 721

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	268
Zarafshon sh.	183
G‘ozg‘on sh.	6
Konimex t.	47
Qiziltepa t.	152
Navbahor t.	55
Karmana t.	193
Nurota t.	57
Tomdi t.	17
Uchquduq t.	86
Xatirchi t.	155



2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 95,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 89,7 foiz ulushini tashkil etdi.

125

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 094


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	91
Zarafshon sh.	20
G'ozg'on sh.	7
Konimex t.	9
Qiziltepa t.	35
Navbahor t.	21
Karmana t.	52
Nurota t.	11
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	15
Xatirchi t.	33



2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,9 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,5 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,5 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 46,6 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,1 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	143
Zarafshon sh.	41
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	22
Navbahor t.	20
Karmana t.	38
Nurota t.	9
Tomdi t.	8
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	39



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 342 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,4 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,2 foizni tashkil etdi;



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	201
Zarafshon sh.	35
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	4
Qiziltepa t.	141
Navbahor t.	48
Karmana t.	182
Nurota t.	10
Tomdi t.	18
Uchquduq t.	17
Xatirchi t.	64



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar 91,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 96,2 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 81,5 foizni tashkil etdi.

Pochta
va kuryerlik
faoliyati

22

Omchor xo'jaligi
va yordamchi
transport faoliyati


102

Quruqlikdagi
va quvur
transporti


589

**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot
2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda**

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**



**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyat hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘sghan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shamagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	288	9,8 %	Konimex t.	65	14,2 %
Karmana t.	134	7,9 %	Nurota t.	60	8,7 %
Qiziltepa t.	145	7,5 %	Uchquduq t.	54	9,1 %
Navbahor t.	106	11,7 %	Tomdi t.	31	11,7 %
Xatirchi t.	93	11,1 %	G‘ozg‘on sh.	4	4,4 %
Zarafshon sh.	66	11,7 %			


2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 20 788 ta korxona va tashkilotlarining 10 987 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi.

Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 39,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,0 foiz, sanoat – 13,1 foiz va qurilish – 8,8 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	2 924	Uchquduq t.	593
Qiziltepa t.	1 946	Zarafshon sh.	564
Karmana t.	1 705	Konimex t.	458
Navbahor t.	909	Tomdi t.	266
Xatirchi t.	840	G'ozg'on sh.	90
Nurota t.	692		


Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Hududlar kesimida

Konimex t.	65	25,8 %	Navoiy sh.	26	4,1 %
Navbahor t.	36	8,1 %	Qiziltepa t.	11	3,6 %
G‘ozg‘on sh.	35	13,2 %	Karmana t.	7	1,7 %
Tomdi t.	33	16,8 %	Nurota t.	5	1,8 %
Zarafshon sh.	28	5,3 %			
Xatirchi t.	26	3,3 %			

2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

128,8 %


103,4 %

112,3 %

89,0 %

82,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 133 tani tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari shahar va tumanlar kesimi bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: Xatirchi (19,0 foiz), Navoiy (15,2 foiz), Zarafshon (12,7), Navbahor (10,7 foiz), Karmana (9,8 foiz), Qiziltepa (7,4 foiz), Nurota (6,6 foiz), G'ozg'on (6,4 foiz), Tomdi (4,7 foiz), Konimex (6,1 foiz), Uchquduq (1,3 foiz) shahar va tumanlar tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Xatirchi t.	787	Nurota t.	271
Navoiy sh.	630	G'ozg'on sh.	265
Zarafshon sh.	524	Konimex t.	252
Navbahor t.	442	Tomdi t.	196
Karmana t.	407	Uchquduq t.	54
Qiziltepa t.	305		

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirdorlik subyektidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	59	9,8 %	Konimex t.	9	5,8 %
Karmana t.	58	7,8 %	Zarafshon sh.	8	6,5 %
Xatirchi t.	30	5,9 %	G‘ozg‘on sh.	5	11,4 %
Qiziltepa t.	30	10,5 %	Uchquduq t.	4	11,1 %
Navbahor t.	30	6,0 %			
Nurota t.	11	4,7 %			

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish surʼati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-iyul holatiga 3 261 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Karmana t.	745	Konimex t.	156
Navoiy sh.	603	Zarafshon sh.	123
Xatirchi t.	505	G'ozg'on sh.	44
Navbahor t.	496	Uchquduq t.	36
Qiziltepa t.	286	Tomdi t.	35
Nurota t.	232		

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokida korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokida korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida

Navoiy sh	15	21,1 %	Karmana t.	1	1,8 %
Konimex t.	3	18,8 %	Nurota t.	1	8,3 %
Navbahor t.	1	11,1 %			


2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yetakchi o'rinni 42 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 19,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 17,0 foiz), Eron Islom (8,0 foiz), Turkiya (ulushi 9,0 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,1 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	71	Qiziltepa t.	9
Karmana t.	57	Navbahor t.	9
Konimex t.	16	Tomdi t.	6
Xatirchi t.	14	G'ozg'on sh.	4
Nurota t.	12	Uchquduq t.	3
Zarafshon sh.	11		

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

	Xitoy Xalq Respublikasi	5
	Turkiya Respublikasi	2
	Rossiya Federatsiyasi	2
	Qozog‘iston Respublikasi	1
	Hindiston Respublikasi	1
	Turkmaniston Respublikasi	1
	Belorussiya Respublikasi	1
	Birlashgan Arab Amirligi	1
	Boshqa Davlatlar	7

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 93 tasi qo‘shma korxonalar, 119 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

36 Navoiy shahri **35**

7 Zarafshon shahri **4**

2 G‘ozg‘on shahri **2**

11 Konimex tumani **5**

3 Qiziltepa tumani **6**

5 Navbahor tumani **4**

37 Karmana tumani **20**

7 Nurota tumani **5**

2 Tomdi tumani **4**

1 Uchquduq tumani **2**

8 Xatirchi tumani **6**

2024- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab
qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
ko‘rsatish bo‘limi
Tel.:79.223.42.67